

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Akramova Dildora Ergashevna

Nizomiy nomli TDPU “Maktabgacha ta'lim pedagogika va psixologiyasi”
kafedrası o'qituvchisi

Axmedova Nilufar Bahtiyor qizi

Nizomiy nomli TDPU “Maktabgacha ta'lim pedagogika va psixologiyasi”
yo'nalishi talabasi

Annatotsiya: Ma'lumki har qanday faoliyat turi me'yoriy asoslarga tayanib quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi.

Kalit so'zlar: Davlat, maktabgacha ta'lim, menejment, innovatsiya, nizom, qonun-qoida, boshqaruv.

FORMATION OF THE MANAGEMENT CULTURE OF THE HEAD OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: It is known that any type of activity is built on normative grounds, since in order to achieve the goal pursued from the implementation of this activity, to distribute the task to be performed, to control its implementation, as well as to achieve

efficiency, measures to protect the interests of participants in this activity, to stimulate them are organized and coordinated in the management

Key words: State, preschool education, management, innovation, regulation, rule of law, management.

Mamlakatimiz uzluksiz ta’limining bu bo‘g‘inlari o‘zaro bog‘liq va jamiyatda bajaradigan vazifasi jihatidan o‘zaro munosabatlarda bo‘lib, bir-biriga vorislik tariqasida faoliyat ko‘rsatadi. Ularning komil insonni shakllantirishdagi umumiy maqsadda har birining o‘rni va vazifasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab berilgan. Ularning har birining o‘ziga xos tomonlari, o‘z tuzilishi, maqsad va vazifalari mavjud bo‘lib, bir-biriga nisbatan mustaqildir. Shuning uchun ular faoliyatini boshqarish va rahbarlik qilish o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Shu bilan e’tirof etish kerakki, ularni boshqarishda umumiy qonuniyatlar, tamoyillar, shakl va metodlar mavjudligini ham tan olish zarur. Ta’lim tizimiga bunday yondashish o‘z-o‘zidan emas, balki rahbarning boshqarishning nazariy asoslarini bilishi va undan amaliy faoliyatga foydalana olishi bilan shu asosda boshqarish maqsad va vazifalarining, metodlarining yaxlitligini ta’minlashini taqozo qiladi.

Boshqaruv boshqariladigan obyektidagi jarayonlarning aniq maqsadga qaratilganligini va uyushganligini ta’minlashi lozim. Boshqaruv o‘zining bu vazifasini bo‘lishi kerak bo‘lgan narsaning qiyofasini (maqsadlar va ularga erishish rejalarini) shakllantirish; ijrochilar o‘rtasida vazifalar va vakolatlarni taqsimlash (rasmiy tuzilmani yaratish va saqlab turish); ijrochilarning samarali mehnatdan manfaatdorligini ta’minlovchi sharoit yaratish (rag‘batlantirish); jamoada umumiy qadriyatlar va qulay munosabatlarni shakllantirish (norasmiy tuzilma yaratish va saqlab turish); ishning borishini nazorat qilish kabi va boshqa maxsus boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali amalga oshiradi.

Shundan kelib chiqqan holda ta’lim mazmuni, ta’lim muassasalari tartibini va ta’lim sifatini boshqarishni alohida faoliyat sifatida belgilash mumkin. Bunda uning

subyekti boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali o‘quvchilar, pedagoglar, ota-onalar, xizmatko‘rsatuvchi xodimlarning birgalikdagi faoliyatining uyushqoqligini hamda ta’lim maqsadlari va rivojlanish maqsadlariga erishishga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi.

Fan boshqaruv tizimi qanday vazifalarni, qay yo‘sinda hal etishi kerak, turli ichki va tashqi sharoitlarda boshqaruv samaradorligi ta’minlanishi uchun u qanday tuzilgan bo‘lishi lozim, degan savollarga javob berishi zarur. Shu boisdan boshqaruv tizimi xususiyatlari, boshqaruv jarayoni tavsiflari hamda turli tashqi va ichki sharoitlarda faoliyat yuritish va rivojlanish natijalari o‘rtasidagi qonuniy aloqalar alohida ilmiy fan bo‘lgan boshqaruvning umumiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruv vazifasini shu yo‘sinda tushunish uni boshqaruvga eskicha yondashish nuqtai nazaridan uni tadqiq qilish mumkin emasligidan dalolat beradi.

Ta’lim muassasasi qanchalik yaxshi ishlamasin, u o‘zgarmasligi mumkin emas. Ta’lim muassasasida, o‘quv-tarbiya jarayoni bilan bir qatorda, uning rivojlanish jarayoni eng muhim boshqaruv obyektini hisoblanadi. Yangiliklarni o‘zlashtirish ham rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va undashni taqozo etadi.

Ta’lim muassasasi, har qanday tashkilot singari ajralgan holda emas, balki muayyan ijtimoiy muhitda faoliyat ko‘rsatadi. Boshqaruvning bir xil tizimi boshqa sharoitlarda samarali bo‘lishi mumkin. Shu boisdan boshqaruv natijalari u qanday sharoitlarda amalga oshirilishiga qay darajada bog‘liqligini o‘rganishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 369-son qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori.

3.Жуманова Ф., Авазова С., Жобборова Г., Хуснетдинов У. Умумий педагогика асослари. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент, “Ishonchli hamkor”, 2020. - 580 б.

4.Akramova, D. (2022). BO‘LAJAK PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI. Science and innovation, 1(B8), 322-326.

5.Akramova, D. (2022). Oliy ta’lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(B8), 2150-2153.

6.Ergashevna, A. D. (2023). TALABALARDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOSLASHUVCHANLIK MEHANIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH TEHNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH BUGUNGI MUOMMO SIFATIDA. PEDAGOGS jurnali, 26(1), 13-17.

